



“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi respublika uchinchi
ilmiy-amaliy anjumani materiallari



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O'ZBEK TILINI RIVOJLANТИRISH JAMG'ARMASI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O'QITISH VA MALAKA
OSHIRISH MARKAZI

"DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR"
mavzusidagi respublika uchinchchi ilmiy-amaliy anjumani

Toshkent – 2023

Sidiqov Jahongir	
Sport-sog'lomlashtirish bilan bog'liq ayrim nomlar haqida mulohazalar	300
Baxtiyarova Fotimaxon	
Astronomiya sohasiga oid bir va ko'p ma'noli terminlarning tavsifi	303
Qo'ldosheva Nazokat	
Soha lug'atlari va axborot terminologiyasi masalalari xususida ..	309
Oromova Munisa	
Ornitonimlarning paremalardagi ijobiy semalari	313
Burxanova Mashxuraxon	
Tilshunoslikda olfaktor idrok masalasi	319
Turakulova Okila	
O'zbek tilini davlat tili sifatida o'qitishda jadidlar ilmiy merosining ahamiyati	321
Shirinova Yekaterina	
Termin – olam sohaviy manzarasi in'ikosi	324
Dilfuza Shonazarova	
Intervyu matnning lingokulturologik aspekti va nutq madaniyati bilan aloqasi	327
Davronov Azimjon	
Tilga bo'lgan munosabat qoniqarli emas	330
Usmonova Hurinso, Musayeva Yelena	
O'zbek tilida dunyoning lingvistik manzarasini shakllantirish roli	334
Mamaraximov Sirojiddin	
O'zbek tilshunosligida leksikologiyaning tendensiyasi	338

O'zbek tilini davlat tili sifatida o'qitishda jadidlar ilmiy merosining ahamiyati

Turakulova Okila,
pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti
shahrizodf@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilining nufuzi, o'zbek tilini davlat tili sifatida o'qitishning ta'limdag'i muammolari va yechimlarini topishda adabiyotning o'mi, jadidlar ilmiy merosining ahamiyati yuzasidan mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, milliy til, jadid adabiyoti, davlat tili, A.Avlouiy, M.Behbudiy, til va adabiyot.

Xalqimizning ko'p asrlik madaniy, ilmiy-ma'rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo'lgan o'zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir. Istiqlol yillarda ona tilimiz tom ma'noda davlat tiliga aylanib, xalqimizni yurtimizda erkin va ozod, farovon hayot qurishdek buyuk marralarga safarbar etadigan beqiyos kuch sifatida maydonga chiqdi. Mustaqillik yillarda o'zbek tilining jamiyatimizning barcha sohalarida keng qo'llanilayotganligi, xalqaro miqyosda kompyuter va internetda foydalilanayotgani ham ijodiyot va idoraviy ish yuritishda o'z samarasini berib kelmoqda. O'zbek tili xalqaro miqyosda keng va faol muloqot vositasiga aylanib, uning xorijiy davlatlar rahbarlari bilan olib borilayotgan muzokara va uchrashuvlarda, yuksak darajadagi rasmiy tadbirlarda qo'llanilayotganligi barchamizda g'urur-iftixon tuyg'usini uyg'otadi.

Shu bilan birga, davlatimiz rahbarining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni davlat tilining jamiyatimiz rivojidagi o'mini yanada mustahkamlab berdi. Ayniqsa, bugungi globallashuv davrida "O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqiyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug' ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda Davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash maqsadida" Davlat tilini rivojlantirish departamentining

tashkil etilishi mamlakatimiz siyosiy hayotidagi eng katta yutuq, muhim istiqbolli farmon bo'ldi. [1].

O'zbek tilini davlat tili sifatida o'qitishning ta'limdag'i muammolari va yechimlarini topishda, albatta, adabiyot birlamchi manba sanaladi. Boisi har qanday millat tili uning adabiyotida o'z aksini ko'rsatadi. Ma'rifatparvar va zabardast adibimiz Abdulla Avloniy: "Har bir millatning dunyoda berligini ko'rsatadurgan oynai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur" – degan aniq va teran fikrlarni bayon etganda naqadar haq edi. [2:19]

Abdulla Avloniyning ona tili va adabiyotni buzish, boshqa tillar bilan aralshtirib, mazmun-mohiyatini o'zgartirish, pirovard natijada, bir tilning boshqa tildan ustun turishiga, tilning ruhiyatini buzishga qaratilgan har qanday urinish va zid harakatlarga qarshi chiqqanligi quyidagi purma'nno so'zlarida yaqqol isbotlanadi. "Zig'ir yog'i solub, moshkichiri kabi qilub, aralash-quralash qilmak tilning ruhini buzadir. Bobolarimizga etishg'on va yaragan muqaddas til, adabiyot bizga hech kamlik qilmas. Dunyoning lazzati sodiq do'stilar ila suhabat qilmoqdan iborat" "Yohu! Bizga na bo'ldi? Bobolarimiz yo'lidan chiqib ketduk. Bobolarimiz yetushg'on va yaragan muqaddas til va adabiyot bizga hech kamlik qilmas, Payg'ambarimiz: "Erkarda jamol lison va tildir", - degan edi. [2: 19]

Usbu dalillar shundan dalolat beradi, ajodod va avlodlarimiz tomonidan yaratilgan o'zbek tili asrlar osha rivojlanib, turkiy tillik millat va elatlar orasida keng tarqalib, yanada sayqallashib, yuksak madaniy tilga aylanganligi va o'zining tarixiyligi bilan ham ahamiyatlidir.

Til xususiyatlarining barchasi badiiy adabiyotda yuzaga chiqadi. Mahoratl shoир, yozuvchi millat tilining barcha xususiyatlarini, leksik boyligi, semantik kengligi va ushubiy-ifoda xususiyatlarini ko'rsatib bera oladi. XV asr o'zbek adabiy tili deganda Hazrat Alisher Navoiy ko'z oldimizga kelganidek, har bir davrda tilning imkoniyatlarini ijodkorlar ko'rsatib bergan. Ayniqsa, istiqlol yillarda o'zbek tilining Davlat tili sifatidagi mavqeyini oshirish, tilimizga hurmat va ehtiromni shakllantirish, yoshlar o'ttasida hamda xalqaro doirada milliy tilimizga nisbatan yuqori munosabatni shakllantirishda bugungi kunda davlatimiz tomonidan chiqarilayotgan qonun va qarorlar, prezident farmonlari alohida ahamiyat kasb etadi.

XX asr boshida tarix sahifalarida Jadidchilik nomi bilan yuritilgan yirik harakat bor edi, ularning maqsadi ozodlik bo'lishi bilan birga millatga oid har bir tushunchaning asliga muvofiq bo'lishi edi, milliy til

masalasi ham yirik ijtimoiy-siyosiy kurashga aylanib ketdi. Buning belgilari davr adabiyotida o'z mazmunini ko'rsatadi. Jadidlarning yetakchilaridan Ismoilbek Gaspirali millatning ikki asosi borligini aytar ekan, bularning biri til ekanini ta'kidlab, agar ular sug'urib olinsa, millat tanazzulga yuz tutishini aytib o'adi. Shu ma'noda Turkistonda yetishib chiqqan jadid ma'rifatparvarlari Fitrat, Avloniy, Behbudiy, Cho'lpon, Munavvar Qori kabilar til masalasini birinchi o'ringa qo'yadi.

Jadid adabiyotini maxsus o'rgangan professor B.Qosimov o'z tadqiqotlarida, Behbudiyni publisist sifatida baholar ekan, til haqidagi qarashlariga ham alohida to'xtalib o'tadi. "Eng boy tillardan bo'lgan inglizchaning ham o'n minglar ila begona lug'otlarni dalil qilib olganligini ko'rsatadi. Va masalaning boshqa jihatiga – yagona adabiy til, til birligiga diqqatni qaratadi. [3: 260].

Behbudiy kabi jadidlar, nafaqat, milliy tilni o'rganish bilan cheklanmasdan, chet tillarini o'rganishni ham dolzarb bilib, o'zining "Ikki emas, to'rt til kerak" maqolasida o'zbek tilidan tashqari fors, arab, rus tillarini o'rganishni yoshlar uchun dolzarb ekanligini isbotlab beradi. "Arabiylar bilmasak, din, ruscha bilmasak dunyo qo'lidan ketar. Turkiy va forsiyini keraklig'iga so'z yo'qtur...Yana bir til va xat borki, butun olam bir-biri-la aning ila so'ylaydur. Ul fransa tili va xatidur" deya kerak bo'lsa g'ayridinlarning tilini o'rganish haqida "Sahibi Buxoriy"dan dalolat keltiradi. [4: 21]. [5: 12-14]

Jadidchilik g'oyalari ichida milliy tilning davlat tili sifatidagi o'mini qayta tiklash masalasi milliy g'urur darajasiga ko'tarilgan. Har bir ziyoli o'z ona tilining sha'nini ulug'lovchi fikrlari bilan bugungi istiqlol mafkuramizning davlat tili haqidagi qarashlariga o'xshashlikni ko'rish mumkin. Jadidlar tomonidan tuzilgan "Chig'atoy gurungi" jamiyatining eng birinchi ko'targan masalasi ham til bo'lib, unda Fitrat kabi ziyolilar "Dunyoning eng boy, eng baxtsiz bir tili qaysi tildir, bilasizmi?" – savolini qo'yadi. [6: 98]. "Tilimiz" maqolasida bu tilning turkeha, ya'ni o'zbek tili ekanini aytib, o'z fikrini isbotlab beradi. Tashkilot qoshida bir guruh ziyolilar imlo to'dasi ish olib borib, til millatning sha'n-u sharafi, or-nomusi ekanligini ta'kidlashib, ona tilini chet so'zlar hisobiga emas, usmonlilar singari ko'proq o'z imkoniyati hisobiga boyitish va taraqqiy qildirishni ilgari suradilar. til davr tanlamaydi. Balki qaysi zamonda bo'lmasin o'zining milliy xususiyatlari bilan xalq qalbida yashaydi. Uning adabiyotida nash'u namo topadi. Tarix sahifalarida ko'rindiki, bizning ajodolarimiz erk va ozodlik

yo'lida kurashar ekan, birinchi galda, millat tili hamda uning jamiyatdagi mavqeyiga alohida urg'u bergenlar.

XX asming boshlarida "Jadid adabiyoti" nomi bilan tarixga kirgan yangicha qalamkashlar avlodи ham milliy til va uning imlo qoidalariga alohida e'tibor qaratib, "Chig'atoy gurungi" kabi adabiy, madaniy uyushmaning ham til dolzarb vazifasiga aylangan.

Xulosa o'mida aytish joizki, o'zbek tilini davlat tili sifatida o'mini mustahkamlashda jadid adabiyotining yirik vakillarining o'rni beqiyos va takrorlanmasdir. Jadidlar ilgari surgan fikrlar o'zining yangiligi bilan sira eskirmaydi va til taraqqiyotiga salmoqli ta'sir o'tkazadi.

Foydalananlgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. 2019 yil 21-oktabrdagi 5850-sonli "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.
2. Avloniy. Turkiy Guliston yohud axloq. – T., 1992. – B.19.
3. Qosimov B. va boshqalar. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – T.: Ma'naviyat, 2004. – B. 260-261.
4. Behbudiy M. "Ikki emas, to'rt til kerak" maqolasi. (1913)
5. Qosimov B. Maslakdoshlar. – T.: Sharq, 1994. – B.98.

Termin – olam sohaviy manzarasi in'ikosi

Shirimova Yekaterina,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek
tili va adabiyoti universitetikatta o'qituvchisi
moxi5690@mail.ru; vekaterina@navoiv-uni.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada terminning semantik xususiyati, termin semantikasining tushuneha bilan bog'liqligi, umumiste'mol so'zlarining terminologik sistemadan joy olishi, umumiste'mol so'zi hamda terminning umumiyligi va farqli jihatlari, terminda olam sohaviy manzarasining aks etishi kabi masalalar bank-moliya terminlari misolida yoritilgan.

Kalit so'zlar: termin, semantika, terminlashish, transterminlashish, determinlashish, bank-moliya terminlari, olamning sohaviy manzarasi...

Termin semantikasini o'rganish "tushuneha" bilan chambarchas bog'liq, chunki termin tushunchani aks ettiradi. Olimlar termin va tushuncha o'rtasidagi munosabatni turlicha talqin qilsalar ham, ular